



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 55 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	14
Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu	
Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience.....	20
Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova	
Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления.....	26
Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич	
Startup проекты и их реализация	30
Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches	34
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Государственный кредит и государственный долг.....	37
Срождиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Сравнительный анализ реформ государственных финансов в Китае и Грузии: уроки для Узбекистана	42
Срождиддинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish	49
Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich	



KORXONALARDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH



Shakarov Shahzod Sobir o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Buxgalteriya hisobi va menejment fakulteti
Buxgalteriya hisobi va audit tarmoqlar
va sohalar bo'yicha yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

Po'Latov Xudoyberdi Uktamovich

Ilmiy rahbar, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti katta o'qituvchi

Esanov Oybek Madatovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda asosiy vositalar hisobining holati va uni takomillashtirish yo'llarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyati, ularni baholash, amortizatsiya ajratish, inventarizatsiya va hisob-kitob jarayonlari tahlil qilinadi. Mavjud buxgalteriya yondashuvlari va xalqaro standartlar asosida solishtirma tahlil o'tkazilib, amaliy kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Asosiy vositalar hisobini yuritishda raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotdan foydalanish samaradorlikni oshirishi ilmiy asoslanadi. Shu bilan birga, hisob yuritish tizimining aniqligi va shaffofligini ta'minlash uchun xalqaro buxgalteriya standartlari (XBS)ning qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda taqdim etilgan takliflar asosida korxonalarda moliyaviy nazoratni kuchaytirish va asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin. Mazkur maqola asosiy vositalar hisobini takomillashtirishda ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvni birlashtirgan holda puxta tahlil asosida ilmiy asoslangan yechimlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: asosiy vositalar, buxgalteriya hisobi, amortizatsiya, inventarizatsiya, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, xalqaro buxgalteriya standartlari, korxona, moliyaviy nazorat.

Abstract: This article explores the current state and development prospects of accounting for fixed assets in construction enterprises. It focuses on the economic nature of fixed assets, their valuation, depreciation, inventory, and accounting treatment. A comparative analysis is conducted between traditional accounting methods and international standards (IFRS), identifying key challenges and inefficiencies. The study highlights the role of digital technologies and automated software in enhancing accuracy and operational efficiency in fixed asset management. It further emphasizes the need to integrate IFRS to improve financial transparency and strengthen internal controls. Practical recommendations are offered to optimize fixed asset accounting systems and align them with global best practices. The article contributes a balanced perspective combining theoretical insights and practical solutions to support enterprise-level improvements in accounting practices. These findings are especially relevant for industries with large-scale asset utilization, such as construction.

Key words: fixed assets, accounting, depreciation, inventory, digital technologies, automation, IFRS, enterprise, financial control.



Аннотация: Настоящая статья посвящена исследованию состояния и путей совершенствования бухгалтерского учёта основных средств в строительных предприятиях. В работе рассматривается экономическая сущность основных средств, а также процессы их оценки, начисления амортизации, инвентаризации и бухгалтерского отражения. Проведён сравнительный анализ существующих подходов к учёту на основе национальных и международных стандартов (МСФО). Выявлены основные проблемы в практике учёта и предложены рекомендации по их устранению. Особое внимание уделено применению цифровых технологий и автоматизированных программных решений для повышения эффективности и прозрачности учётных процессов. Отмечается важность внедрения МСФО для улучшения качества финансовой отчётности и контроля за использованием активов. Представленные предложения способствуют укреплению финансового контроля и повышению эффективности использования основных средств в организациях. Статья представляет собой сочетание теоретического анализа и практических рекомендаций по оптимизации учёта основных средств.

Ключевые слова: основные средства, бухгалтерский учёт, амортизация, инвентаризация, цифровые технологии, автоматизация, МСФО, предприятие, финансовый контроль.

KIRISH

Iqtisodiyotimizni rivojlantirishda mamlakatda mahsulot ishlab chiqarishni yuqori darajada tashkil etish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishga qaratilgan vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, har bir sohani rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida iqtisodiyotning har bir tarmog'ini rivojlantirish, korxonalarni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish borasida muhim vazifalarni belgilab bermoqda. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarsiz, ilg'or uskunalarsiz hech bir sohada yuksak natijaga erishib bo'lmaydi. Har bir korxona o'zining ishlab chiqarish salohiyatini oshirishi, modernizatsiya va texnik qayta jihozlash ishlarini jadallashtirishi zarur."¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4611-sonli qarori asosida asosiy vositalar va boshqa muomaladagi aktivlar bo'yicha hisob-kitoblar hamda buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Qarorda, shuningdek, asosiy vositalarning inventarizatsiyasi, ularning to'g'ri baholanishi, amortizatsiya hisob-kitoblarning yaxshilanishi, shuningdek, buxgalteriya hisobi sohasida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali hisob-kitoblarning aniqligini oshirishga yo'naltirilgan bir qator tadbirlar ko'zda tutilgan.

Ushbu qaror doirasida korxonalarda asosiy vositalar hisobini takomillashtirish va audit qilish bo'yicha o'zgartirishlar kiritish, mavjud muammolarni hal etish hamda buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilish uchun amaliy takliflar ishlab chiqilishi rejalashtirilgan.

MAVZUGA OID O'TKAZILGAN TADQIQOTLAR TAHLILI

Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritish masalalari respublikamiz olimlari E. A. Abdullayev, K. B. Urazov, R. A. Abdullaev, A. I. Alikulov, X. N. Musayev, R. D. Düstumurodov, M. M. Tulyaxadjayeva, S. N. Toshnazarov va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. Ularning ishlari ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Xususan, E. A. Abdullayevning ishlari asosiy vositalarning hisobini yuritishning nazariy va amaliy jihatlariga qaratilgan. Uning «Buxgalteriya hisobi» nomli kitobidagi fikriga ko'ra: «Asosiy vositalarning samarali hisobini yuritish uchun to'liq inventarizatsiya va ularning amortizatsiya hisob-kitoblarni aniqlash juda muhimdir».² U buxgalteriya hisobida raqamli tizimlarning ahamiyatini ta'kidladi. K. B. Urazov «Iqtisodiyotni boshqarishda buxgalteriya hisobi» kitobida quyidagi fikrni keltirgan: «Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yaxshilashda ularning qiymatini to'g'ri baholash va amortizatsiya usullarini to'g'ri tanlash zarur».³ S. N. Toshnazarovning ishlarida asosiy vositalarning samarali boshqarilishi, ularning qiymatini aniqlash va amortizatsiya qilishning ahamiyati yoritilgan. U amaliy hisob-kitoblar va zamonaviy usullarni qo'llashni maslahat beradi.

Xalqaro darajadagi olimlar ham asosiy vositalar hisobini takomillashtirish bo'yicha o'z fikrlarini bayon etganlar. Masalan, Horngren, Sundem va Elliott asosiy vositalar hisobini yuritishda, ayniqsa, «amortizatsiya

1 Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida prezedent qaroridan

2 «Buxgalteriya hisobi» (2005), E.A. Abdullayev O'qituvchi 256-bet

3 «Iqtisodiyotni boshqarishda buxgalteriya hisobi» (2010). Urazov K.B 145-bet



va aktivlar baholanishining muhimligini ta'kidlaydilar». ⁴. Ularning fikriga ko'ra, asosiy vositalarning samarali boshqarilishi kompaniyaning moliyaviy holatini yaxshilashga xizmat qiladi. Smith va McGuigan asosiy vositalar va boshqa aktivlar hisobini yuritishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun raqamli tizimlardan foydalanishni tavsiya qiladilar. Ular zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali asosiy vositalar boshqaruvini soddalashtirish va hisobotlarni aniqroq qilish mumkinligini ko'rsatadilar.

“IDEAL” MCHJ QURILISH KORXONASIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA TAHLILI

Asosiy vositalar hisobini takomillashtirish bo'yicha amaliy ishlarni o'tkazish maqsadida “IDEAL” MCHJ qurilish korxonasidagi asosiy vositalar hisobi va ularning yuritilish jarayoni tahlil qilindi. Ushbu korxonada asosiy vositalar bo'yicha tekshiruvlar amalga oshirilib, jami hisobda 2023-yilda asosiy vositalar qiymati 24 182 762 266,01 so'm ekanligi aniqlandi. Asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiya qiymati esa 15 166 748 925,11 so'm bo'lib, qoldiq qiymat 9 016 013 340,90 so'mni tashkil qiladi.



1-rasm. IDEAL MCHJ da asosiy vositalar.

Korxonada turli xildagi asosiy vositalar borligi aniqlandi, jumladan: binolar va inshootlar, mashina va asbob-uskunalar, transport vositalari hamda boshqa yo'l qurish va ta'mirlash uskunolari. Korxonada jami 11 ta bino mavjud bo'lib, shundan 2 tasi to'liq eskirgan va o'z qiymatini yo'qotgan. Ularning o'rniga yangi binolar qurib bitkazilgan.

Jumladan, ma'muriy bino 20.11.1972-yilda qurilgan bo'lib, uning boshlang'ich qiymati 27 972 025,04 so'm, va ushbu qiymat to'liq eskirgan. Uning o'rniga yangi ma'muriy bino qurilgan bo'lib, uning qiymati 82 715 416,3 so'm, va unga 35 466 284,91 so'm miqdorida amortizatsiya hisoblangan. Hozirgi balans qiymati 47 249 131,39 so'mni tashkil qiladi.


Korxona yo'l qurish va ta'mirlash bilan shug'ullanganligi sababli, omborxona binosi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu omborxonaning qiymati 2 817 766,47 so'm deb baholangan, unga hisoblangan eskirish qiymati esa 1 534 939,69 so'mni tashkil etadi.

Quyidagi jadvalda qolgan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatlari va hisoblangan eskirish qiymatlarini ko'rib chiqish mumkin:

4 "Introduction to Management Accounting" (2012). Dr Horngren, Sundem, va Elliott page 167



2023-yil va 2024-yildagi asosiy vositalar qiymatidagi o'zgarishlar



2-rasm. IDEAL MCHJ da 2023-2024-yillarda asosiy vositalar

Rasmdan ko'rinib turibdiki, asosiy vositalar orasida mashina va uskunalar hamda inshootlar korxona aktivlarining asosiy qismini tashkil etadi. Ularning eskirishiga qaramay, katta qiymatda saqlanmoqda, bu esa ularning ishlab chiqarishdagi faol rolini ko'rsatadi. Transport vositalari esa tezroq eskiruvchi aktiv sifatida ajralib turadi, bu ularni muntazam yangilab borish zarurligini anglatadi. Binolar nisbatan eng barqaror aktiv bo'lib, eskirish darajasi past hisoblanadi.

1-jadval. 2023-yil uchun IDEAL MCHJda binolar qiymati.

Asosiy vositalar nomi	Foydalanmishga qabul qilingan Sanasi	Boshlang'ich qiymati	Hisoblangan eskirish qiymati	Balans qoldiq qiymati
Ma'muriy bino	20.11.2014	27 972025,04	27972025,04	
Omborxona	31.12.1989	2 817 766,47	1 534 939,69	1 282 826,78
Ma'muriy bino yangi	31.12.1972	82 715416,30	35466284,91	47249131,39
Tokarniy tsex		23 523286,45	7 374 975,46	16148310,99
Kozonxona	29.12.2014	80 317166,04	31650835,77	48666330,27
Bug kozonxonasi	20.11.2014	13 464366,56	5 305 944,92	8 158 421,64
Naves dlya avtomashin	31.08.1990	46 593581,18	18205039,37	28388541,81
Svarochniy tsex	31.12.2015	3 642 938,45	1 256 573,33	2 386 365,12
Ustaxona omborxona	31.12.2015	43814 733,24	43814733,24	
Korovulxona	31.12.1989	664 485,94	355 746,96	308 738,98
Xojatxona	31.12.1981	14 336011,86	4 494 598,77	9 841 413,09
Jami		339861777,53	177431697,46	162430080,07

Binolar ushbu korxonada jami asosiy vositalar qiymatining 1,32 % ini tashkil etadi va ular kompaniyaning ofis, boshqaruv markazi yoki boshqa ma'muriy obyektlarini ifodalaydi. 1,32 % ulushga ega bo'lishi kompaniyaning bino infratuzilmasiga unchalik katta mablag' ajratmaganini yoki faoliyatini ijara asosida olib borayotganini anglatishi mumkin. Kelajakda kompaniya o'sishi bilan yangi ofis binolari yoki ma'muriy obyektlarni sotib olish zarurati yuzaga kelishi mumkin.

Bizda mavjud bo'lgan asosiy vositalarning samaradorligini aniqlash orqali korxona asosiy vositalar bilan bog'liq qanday ishlarni amalga oshirishi kerakligini bilib olishimiz mumkin. Bunda uch xil ko'rsatkichni aniqlash mumkin, bular:



Jami daromad

1. Asosiy vositalarning daromadliligi= $\frac{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati}}{\text{Jami daromad}}$

*Sof foyda*100*

2. Asosiy vositalarning rentabilligi= $\frac{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati}}{\text{Sof foyda*100}}$

Ishlab chiqarish xarajatlari

3. Asosiy vositalarning natijaviyligi= $\frac{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati}}{\text{Ishlab chiqarish xarajatlari}}$

Birinchi ko'rsatkich bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirsak, "IDEAL" MCHJda 2023-yilda korxona asosiy vositalarining daromadlilik ko'effitsiyenti 0,04 ga, ya'ni 4 % ga teng ekanligini ko'rishimiz mumkin. Asosiy vositalarning rentabelligini aniqlaganimizda esa, uning ko'rsatkichi 0,96 ga teng ekanligi aniqlandi. Asosiy vositalarning natijaviylik ko'effitsiyenti esa 0,03 ga teng bo'lib chiqqani kuzatildi.

"IDEAL" MCHJning 2023-yilgi asosiy vositalar holatini tahlil qilish orqali korxonaning moddiy-texnika bazasi va ularning samarali ishlatilish darajasi baholandi.

Tahlil natijalari asosida korxonaning asosiy vositalari bo'yicha quyidagi muhim ko'rsatkichlar aniqlandi:

– Asosiy vositalarning daromadlilik ko'effitsiyenti 0,04 (4 %) ni tashkil etdi, bu esa asosiy vositalardan foydalanish orqali olingan sof foydaning past darajada ekanligini ko'rsatadi.

– Rentabellik ko'effitsiyenti 0,96 bo'lib, bu asosiy vositalarning qoldiq qiymatiga nisbatan foyda yetarli darajada shakllanayotganini bildiradi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichning yuqori chiqishi eskirgan asosiy vositalar qiymatining pastligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

– Natijaviylik ko'effitsiyenti 0,03 ga teng bo'lib, bu asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining past darajada ekanligini anglatadi.

Yuqoridagi tahliliy ko'rsatkichlar asosida xulosa qilish mumkinki, korxonada mavjud asosiy vositalarning muhim qismi eskirgan bo'lib, ularning jismoniy va ma'naviy jihatdan yangilanishi zarur. Korxona tomonidan asosiy vositalarning yangilanib borilishi, ularning foydalilik darajasining oshirilishi hamda texnik xizmat ko'rsatish tizimining takomillashtirilishi nafaqat moliyaviy natijalarga, balki umumiy ishlab chiqarish samaradorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dunyo iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda, O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan korxona va tashkilotlarning davlat taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shishlari juda zarurdir. Bunda, asosan, ishlab chiqarish, qurilish, xizmat ko'rsatish va boshqa soha vakillari jonbozlik ko'rsatishlari lozim. Yaratuvchanlik nuqtai nazaridan, ayniqsa ishlab chiqarish korxonalari yirik darajadagi iqtisodiy rivojlanishga sabab bo'la oladi.

Xususan, avtomobil yo'llaridan foydalanish bilan shug'ullanuvchi korxonalar davlatimiz iqtisodiyoti uchun beqiyos hissa qo'shishi mumkin. Buning sababi shundaki, mavjud yo'llarni yaroqli holatda saqlash va yangilarini qurish turistlar oqimi hamda boshqa sohalar rivoji uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, "IDEAL" MCHJ uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

– Korxona egalik qilayotgan asosiy vositalarning aksariyati eskirib ketgan va zamonaviy talablar darajasidan ancha orqada qolgan. Bu holat ishlab chiqarish jarayonining sekinlashishiga olib kelishi mumkin. Ushbu jarayonni oldini olish uchun eski mashina va asbob-uskunalaridan imkon qadar voz kechib, ularni zamon talablariga mos texnik vositalarga almashtirish kerak. Bu, o'z navbatida, sifatli yo'llarni barpo etishga zamin yaratadi.

– Eskirgan mashinalarning buzilishi tufayli ish jarayonlari cho'ziladi, bu esa ishlab chiqarish unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, sifatsiz qurilgan yo'llar qisqa muddatda qayta ta'mirlashga muhtoj bo'lib qolishi mumkin.

– Korxonada ichki audit va iqtisodiy tahlilni olib boradigan xodim ishga qabul qilinishi zarur. Bu orqali asosiy vositalar holati, ularning harakati, taqsimoti va qaysi aktiv korxonaga qanday daromad keltirayotgani haqidagi aniq ma'lumotlar asosida rahbariyat oqilona qarorlar qabul qilishi mumkin bo'ladi.

– Korxona hisobining to'g'ri yuritilishini ta'minlash maqsadida har oyda bir marta ichki audit o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Tahlil natijalariga tayangan holda korxona asosiy vositalarini sotish, ushlab turish, konservatsiya qilish yoki yangilash bo'yicha tez va aniq qarorlar qabul qila oladi. Bu esa, kelajakda korxonani raqobatchilaridan ortda qolmaslik va barqaror rivojlanishda muvozanatda saqlanishi uchun muhim dastur sifatida xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4611-sonli Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori.
2. Uzarov K. B. Buxgalteriya hisobi va audit. – Toshkent: Oliy ta'lim, 2004.
3. Toshnazarov S. N. O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishdagi muammolar va hal qilish yo'llari // Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tish va xalqaro tajribani O'zbekistonda qo'llashning dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 335 b.
4. Shirinov U. A. Buxgalteriya hisobi va audit. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 353 b.
5. Pardayev M. Q., To'raev B. O. Buxgalteriya hisobi (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2009. – 280 b.
6. Pardayev M. Q., Xoliqulov A. N. Korxona iqtisodiyoti. – Samarqand: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2007. – 245 b.
7. Shirinov U. A. Hisobot va audit tizimi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2010. – 210 b.
8. www.Lex.uz
9. www.Zyonet.com
10. www.Norma.uz
11. www.buxgalteracademy.com



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
